

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISHDA GRAMMATIK MASHQLAR BAJARTIRIB BORISHNING AHAMIYATI

*Atadjanova Dilorom DJamalovna*

*Qoraqalpog'iston Respublika To'rtko'l tumani*

*32-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda grammatik mashqlar bajartirib borishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, bu mavzu buyicha turli olimlarning tajribalari jamlangan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, og'zaki va yozma, grammatik mashqlar, nutqni o'stirish.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni amaliyotga keng joriy qilinmoqda. Istiqlool sharofati bilan mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida ham mustaqil chuqur islohatlar o'tkazishga keng imkoniyat berildi. Shunday islohatlardan biri o'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirishga qaratilgandir. Bola nutqining to'g'ri shakllanishi asosan boshlang'ich maktabda izga solinadi va u o'rta maktabga o'tganida to'laligicha takomillashadi.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurini ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'z fikrini his- hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir, o'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Bolani psixik yoshdanoq ravon tilga gapirishga o'rgatish lozim.

O'quvchilar nutqini o'stirish uchun o'qituvchilar o'quvchilartilining talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilish va bog'lanishli nutqini aktiv egallashlarida yordam beradigan metod va usullardan foydalanish kerak bo'ladi.

Ona tili ta'limining maqsadi o'quvchilarda tafakkur qilish tilning ifoda vositalarini maqsadga muvofiq tarzda, ayni shu tilning me'yorlariga rioya qilgan xolda qo'llashga o'rgatishdan iborat.

Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishga, o'z nutqida go'zal so'zlardan foydalanib, fikrni erkin bayon qilishga o'rgatib borish muxim. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar barcha darslar davomida nazariy va amaliy bilimlarni olish bilan birga jummalarni to'g'ri tuzish, o'zaro muomala qoidalari, fikrni bayon etish, qayta ijodiy hikoyalash, she'r yodlash orqali og'zaki nutq ko'nikmalari ham rivojlantirib boriladi.

Nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi.

Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishga o‘rgatadi.

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq xolda olib boriladigan ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida bilim beradi. Bu darsda o‘quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat yaratadi. Boshlang‘ich sinfdagi boshqa darslarda ham o‘quvchilar nutqi xilma-xil so‘zlar bilan boyitiladi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko‘p so‘z va terminlar bilan o‘z nutqlarini boyitadilar, mantiqiy fikrlaydilar.

O‘quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko‘rgan predmetlarini o‘qituvchi yordamida guruxlaydilar, taqqoslab o‘hshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o‘z navbatida tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi, tafakkurni, nutqni o‘stiradi. Mehnat, tasviriy san‘at, jismoniy tarbiya, musiqa darslarida ham darslardan tashqari mashg‘ulotlar ham o‘quvchi nutqi va tafakkurini o‘stirishga imkon beradi. Avvalo, o‘qituvchining o‘zi adabiy til normalariga rioya qilgan xolda ifodali ta‘sirli so‘zlashi zarur. O‘qituvchining o‘zi bola uchun namuna bo‘lmog‘i zarur. Chunki, bolalarda taqlid xususiyati o‘ta kuchlidir<sup>1</sup>.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishi rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina u o‘quvchining butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta‘sir etib nutqning ravon ifodali bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo‘l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to‘g‘ri so‘zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllanib boradi. Ularning ijodiy faoliyati va iste‘dodlarini rivojlantirib ro‘yobga chiqaradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish uchun barcha mashg‘ulotlarda ularning lug‘at boyliklarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan reja asosida so‘zlarni nutqda faol qo‘llashga o‘rgatish orqali mustahkamlab borish kerak. O‘quvchilar yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lmasdan turib aniq va ravon fikr yurita olmaydilar.

O‘rgatilgan har bir yangi so‘z o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshiradi, fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun xam o‘quvchilar bilan so‘z va uning ma‘nolarini egallash ustida uzluksiz ish olib borish lozim. Bunda sinonim so‘zlarni doimiy ravishda tadrijiy tarzda o‘quvchining nutqiga singdirish alohida ahamiyatga ega. Chunonchi:

Yuz yashil ixcham dumaloq  
Aft zangori kichkina aylana  
Bashara ko‘k jajji lo‘nda

<sup>1</sup> Approaches and Methods in Language Teaching, Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers, Cambridge University Press.

O'qituvchi so'zlar matnning zaruriy elementlari ekanligini o'quvchilarga singdirib borishni unutmazligi kerak. O'quvchilarni og'zaki bayonga tayyorlash yuzasidan umumiy nutqqa xos bir qator maxsus ishlar olib borilgandan o'ng uyushtirilgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchi og'zaki nutqining aloxida takomillashishiga yordam berish kerak. Bunda ayniqsa o'quvchilar o'zlashtirishi lozim. So'zlarning ma'nosini tushunishlari qiyin bo'lsa, sinonimlardan foydalanish juda muhimdir<sup>2</sup>.

O'qituvchilarning vazifasi nutq o'stirishishlarini o'quv choraklariga rejalashtirishda bayon va insho sonini aniqlab olish bilan birga, og'zaki va yozma ishlarning xarakterini xamda to'g'ri yozuv mashg'ulotlari tizimidagi o'rnini xam belgilab olish hisoblanadi. Bunda yozma nutq sohasidagi ko'nikmalarni og'zaki nutqni o'stirish asosida xosil qilish ko'zda tutiladi. Bolalar og'zaki mashqlarni bajarayotganida o'qituvchi bayon(insho)ning mazmuni, ko'rinishi yuzasidan ko'rsatmalar beradi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Zamonaviy maktabda o'qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaliligini oshiradi, hissiy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi nutqi bu holda go'yo birlashtiruvchi bo'lib qoladi: u kino, musiqa, foto ishlanma bilan birga idrok etiladi. O'qituvchi so'zi alohida tasviriy-ifodaviy sifatlarni ham aks ettiradi. Toki og'zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyat ham kasb etadi.

Og'zaki nutq-yorqin, shaklan obrazli, ichki emotsional nutq. Shu bois u til vositalari va uslubiy xususiyatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Og'zaki nutqning to'liqlanganligi, emotsionalligining yuqoriligi ekspressiv (hissiy bo'yoqdor) leksikani saralash zaruratini kuchaytiradi<sup>3</sup>.

Og'zaki nutq jumla va gaplarning kam so'zli bo'lishi hamda ohangdorligini talab qiladi. Mantiqiy va psixologik to'xtamlarni to'g'ri joylashtirish, fikrni rivojlantirishda dialogik qismlarni belgilash, nutqning ifodaliligini o'ylash taqozo qilinadi. Tabiiyki, so'z talaffuzi, diksiya muammosi alohida dolzarflik kasb etadi. Yaxshi diksiya (aniq talaffuz) og'zaki nutqning fonetik va musiqiy jaranglashida juda muhim.

Sinf bilan doimiy muloqot og'zaki nutq sintaksisda o'ziga xos aks etadi: so'zlovchi ko'proq sodda gap turlarini qo'llaydi so'roq va undov gaplarga keng murojaat qiladi, oldingi gapning davomi bo'lgan gaplarni qo'llaydi. Og'zaki nutqda takror, gradatsiya (izchillik), mubolag'aviylik qiyoslash, turli ma'no ko'chishlar, kinoya nutqiy vositalar keng qo'llaniladi.

Yozma nutq manbai o'quvchining sinf oldidagi jamoaviy tinglovchiga mo'ljallangan og'zaki javoblaridir. Biroq boshlang'ich sinflarda shevaning keng

<sup>2</sup> Gulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. -T.: «O'qituvchi», 2015. Bo'lishi lozim.

<sup>3</sup> Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari. O'zbekiston tilidan doimiy 5-anjumani materiallari. -T.: «Sharq», 2019.

qo'llanilishi natijasida talab darajasidagi ixtisoslashgan o'quv og'zaki nutq madaniyatiga erishish ancha mushkul. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan ham farqlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, maktabda o'qitishning dastlabki yillarida o'quvchilarning og'zaki nutqi ularning yozma nutqiga nisbatan to'laroq shakllangan bo'lib, o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. O'qish va yozish o'quvchilar uchun o'rganishning maxsus shakli bo'lib qoladi. Keyinchalik esa ular o'quvchilar uchun bilimlarni o'zlashtirishda bir xil ahamiyat kasb etadi.

Savod o'rgatish jarayonida har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan mavjud sharoitda o'quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartiga aylanadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish muammosi doimo diqqat markazida bo'lishi lozim<sup>4</sup>.

Didaktik o'yinlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga erishiladi.

### XULOSA

Eng avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, o'quvchilarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarning tashkil etilishi o'rinlidir. Chunki o'yinli dars o'quvchilar uchun qiziqarli va sevimlidir. Shu o'yinlar tufayli o'quvchi eng avvalo maktabga, darsga qatnashga qiziquvchan bo'ladi. Bundan tashqari, har bir darsda javob berishga harakat qiladigan, puxta fikrlab so'ngra so'zlaydigan, o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan har bir fikrga o'ta e'tiborli va o'zgaruvchan bo'lib boradi. Har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan mavjud sharoitda o'quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartiga aylanadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish muammosi doimo diqqat markazida bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Approaches and Methods in Language Teaching, Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers, Cambridge University Press.
2. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari.- T.:«O'qituvchi»,2015. Bo'lishi lozim.

<sup>4</sup> Aminov M. N., Majidov A. M. Tarbiya (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat", 2020.

3. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari. O'zbekiston tilidan doimiy 5-anjumani materiallari.-T.:«Sharq», 2019.

4. Aminov M.N., Majidov A.M. Tarbiya(ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat, 2020.

5. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

6. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)

7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)